

YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: O'ZBEKISTONNING YANGI IQTISODIY YO'LI

I.F.Muhiddinova

e-mail: muhiddinova.iroda@icloud.com

D.A.Begmatova

e-mail: dilrabobegmatova0@gmail.com

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent, 100149, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: muhiddinova.iroda@icloud.com

Annotatsiya; Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning mazmuni, barqaror rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi hamda O'zbekiston Respublikasida bu borada olib borilayotgan islohatlar yoritilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivoji, xalqaro hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, yashil kreditlar va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Maqola O'zbekistonning ekologik barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi amaliy harakatlarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar. Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik siyosat, O'zbekiston, yashil kreditlar, xalqaro hamkorlik, quyosh energiyasi, shamol elektr stansiyasi.

1 Kirish

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, ekologik muommolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi global iqtisodiyotning asosiy tahdidlari bo'lib qolmoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlari yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish global miqyosda dolzarb masalaga aylandi. Bunga bir qator omillar, xususan iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar sabab bo'lmoqda. Shu qatorda, yashil texnologiyalarning rivojlanishi va ularning narxi pasayishi ham bu jarayonni tezlashtirmoqda. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda faol ishtirok etib, 2025-yilni "Ekologik himoya va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ushbu strategiya mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Yashil iqtisodiyot -bu atrof muhitga zarar yetkazmasdan, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. Bu modelda energiya tejamkorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish asosiy mezon sifatida qaraladi. Barqaror rivojlanish esa insoniyat ehtiyojlarini hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlar imkoniyatlarini kamaytirmaslik tamoyiliga asoslanadi. Yashil iqtisodiyot bu tamoyilni amaliyotda ro'yobga chiqarish vositasi hisoblanadi.

2 Eksperimental natijalar va ularning muhokamasi

Yashil iqtisodiyotga o'tish global tendensiya bo'lib, ko'pgina mamlakatlar bu yo'nalishda faol harakatlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayon bir qator afzalliklar va imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, yashil iqtisodiyot modeliga o'tish ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. UNEP ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Bu ayniqsa, iqlim o'zgarishi kabi global muammolar sharoitida juda muhimdir. Ikkinchidan, yashil texnologiyalar resurslardan yanada samaraliroq foydalanish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Barbier (2011) ta'kidlaganidek, bu resurslarning cheklanganligi sharoitida muhim ahamiyatga ega. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari an'anaviy yoqilg'ilarga bo'lgan ehti-yojni kamaytiradi. Uchinchidan, yashil iqtisodiyot sohaları rivojlanishi yangi "yashil" ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi. Bu esa bandlik va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. To'rtinchidan, yashil iqtisodiyot yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlar ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar energetika sektorini butunlay o'zgartirmoqda.


Yashil Kreditlar va Barqaror Iqtisodiy Rivojlanish – bu ekologik jihatdan toza va barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditlardir. Ular iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish, energetika samaradorligini oshirish va yashil infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. Yashil kreditlar berilishining asosiy yo'nalishlari: Quyosh va shamol energiyasi loyihalari; Energiya samaradorligini oshirish (izolyatsiya, LED yoritish, ventilyatsiya); Ekologik toza transport vositalarini xarid qilish; Qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha loyihalar; Suv tejovchi texnologiyalar va qishloq xo'jaligi sohasida ekologik tashabbuslar. O'zbekiston tajribasi: O'zbekistonda 2020-yildan boshlab yashil kreditlar faol joriy etilmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va Jahon banki kabi moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda yashil moliyalashtirish dasturlari ishlab chiqilgan. Ipoteka-bank, Agrobank, Hamkorbank va boshqa tijorat banklari ushbu kreditlarni aholiga va tadbirkorlarga taklif etmoqda.

1-jadval: O'zbekistonda banklar tomonidan ajratilgan yashil kreditlar

Bank nomi	Yashil kredit portfeli	Amalga oshirilgan loyihalar
Ipoteka Banki	109,3 mlrd so'm	17 ta ijtimoiy loyiha
Hamkorbank	EBRD tomonidan ajratilgan 10 mln AQSh dollari	Energiya samaradorligi uchun yo'naltirilgan
Ipak Yo'li Bank	EBRD tomonidan ajratilgan 45 mln AQSh dollari	Yashil kreditlash va savdoni rivojlantirish
Sanoat Qurilish Bank	IFC tomonidan ajratilgan 75 mln AQSh dollari	Yashil o'sish va ko'kni moliyalashtirish

Yashil infratuzilma uchun zarur sarmoya: yiliga 6 mlrd AQSh dolla Yashil kreditlarning iqtisodiy ta'siri: Yashil kreditlar quyidagi ijobiy natijalarga olib kelmoqda: - Import energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj kamaymoqda; - Atrof-muhit ifloslanishi kamaymoqda; - Mahalliy

innovatsion ishlab chiqarishlar rivojlanmoqda; - Aholining yashash sifati yaxshilanmoqda; - Yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Statistik tahlil: O'zbekistonda yashil kreditlar miqdori 2020-yilda 50 mln USD bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 300 mln USDDan oshdi. Ular asosan quyidagi sohalarga yo'naltirilgan: - Energiya samaradorligi (42%) - Quyosh va shamol energetikasi (27%) - Qishloq xo'jaligi (16%) - Qayta ishlash (15%).




1-rasm: Yashil kreditlarning sektorlar bo'yicha taqsimoti.

O'zbekiston yashil iqtisodiyot yo'lidagi islohotlarni xalqaro hamkorlik orqali kuchaytirmoqda. BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkentda "Yashil energiya forumi" o'tkazilib, xorijiy investorlar bilan qayta tiklanuvchi energetika sohasida 2 milliard dollardan ortiq investitsiya shartnomalari imzolandi. Xorazm viloyatida Jahon banki ko'magida 100MVt quvvatli quyosh stansiyasi qurilmoqda. Yana bir loyiha -250 MVt quvvatli stansiya va 63 MVt quvvatli energiya saqlash tizimi bilan birga ishlaydi. Davlat dasturlari va ekologik siyosat. 2025-yilda O'zbekistonda :

-16 ta yangi yashil energiya stansiyasi(3,5GVt)

-35 000 ta xonadonda quyosh panellari

-3 000 kichik GES (164 MVt) quriladi.



2-rasm: Yashil biznes xizmatlariga talab yuqori bo'lgan sohalar.

“Yashil makon” umumxalq loyihasi doirasida 2021-2024 yillar davomida 600 milliondan ortiq daraxt va butalar ekish rejalashtirilgan. Bu loyiha havo sifatini yaxshilash, tuproq eroziyasining oldini olish, iqlim barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, suv resurslaridan samarali foydalanish borasida innovatsion texnologiyalar - tomchilatib sug'orish va yer osti sug'orish tizimlari joriy etilmoqda. Bu choralar O'zbekistonning suv tanqisligiga duchor bo'lgan mintaqalarida ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Suv resurslaridan samarali foydalanish O'zbekiston uchun dolzarb masaladir. Suvni tejash texnologiyalarini joriy etish va suvdan samarali foydalanish muhim vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Biroq, bu yo'nalishda izchil va maqsadli sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur. Bu O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'lida sezilarli natijalarga erishishga ko'mak beradi.

XULOSA

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ustuvorlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yo'nalishdagi strategik islohotlar mamlakat iqtisodiyotini zamonaviylashtirish, aholi farovonligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Mamlakatning bu boradagi qat'iy pozitsiyasi nafaqat ichki barqarorlikni, balki xalqaro miqyosda ekologik mas'uliyatli davlat sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanish omillari sifatida quyidagilar muhim o'rin tutadi: davlat siyosati va huquqiy me'yorlarning moslashuvi, iqtisodiy stimullar, innovatsiyalar va texnologik rivojlanish, jamiyatning ekologik ongini oshirish hamda xususiy sektorning faol ishtiroki. Ushbu omillarni muvaffaqiyatli amalga oshirish barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilni “Ekologik muhofaza va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilish to'g'risidagi qarori-Toshkent 2024.

2. Israilova Sh. " Yashil iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish omillari", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali- №8(2024)
3. UNEP. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.
4. Barbier, E. B. (2011). The policy challenges for green economy and sustainable economic development. Natural resources forum, 35(3), 233-245
5. <https://www.worldbank.org>
6. www.ipotekabank.uz
7. www.ebrd.com
8. www.ifc.org
9. www.oecd.org